

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA CHET TILLARIDAN DARS BERISHNING AHAMIYATI,
UNDA UCHRAYDIGAN QIYINCHILIKLAR VA ULARGA TO'G'RI YECHIM TOPISH USULLARI**

Abdijabbarova Gulsevar

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Xorijiy til va adabiyot yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Elektron pochta manzili: gulsevarAbdijobborova@gmail.com

Annotasiya

Mazkur maqolada bo'lajak chet tillaridan dars beruvchi yosh kadrlar faoliyati hamda o'tiladigan dars sifatini yaxshilashga hizmat qiluvchi omillar, unda uchraydigan qiyinchiliklarga yechim topish va boshlang'ich sinf o'qituvchilaridagi psixik inqirozlarga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi holatlar haqida so'z yuritiladi. Ya'ni pedagogik ta'lim berish muassasalarida o'quv jarayonlarini loyihalashtirish va amaliyotga joriy etish kabi funksiyalar muhokama ostiga olinadi.

Kalit so'zlar: o'quv jarayoni, loyha, onlayn metodlar, globalizatsiya, motivatsiya.

Abstract

It affects the activities of young personnel teaching future languages and improving the quality of the lessons, helping the products produced and improving the effectiveness of the educational process. That is, in the process of pedagogical education, functions such as increasing educational processes and putting them into practice are under discussion.

Key words: Educational process, project, online methods, globalization, motivation.

Абстрактный

Это влияет на деятельность молодых кадров по обучению будущих языков и повышению качества уроков, помогает выпускаемой продукции и повышает эффективность образовательного процесса. То есть в процессе педагогического образования обсуждаются такие функции, как активизация образовательных процессов и их реализация на практике.

Ключевые слова: образовательный процесс, проект, онлайн-методы,

Hozirgi davrda mamlakatimizdagi har bir ta'lim muassasalarida chet tillariga alohida urg'u berilmoqda. Ayniqsa maktabgacha va boshlang'ich sinflari uchun bir vaqtning o'zida bir nechta chet tillari bir vaqtning o'zida o'rgatib borilmoqda. Bolalarga chet tillarini o'rgatish o'smirlarga qaraganda biroz mushkul hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun chet tilining ahamiyati.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari (7-10 yoshli bolalar) atrofga o'ta qiziquvchan bo'ladi va biz bu imkoniyat orqali chet tillarini chuqur o'rgata olishimiz ular uchun kelajakda juda katta imkoniyatlarni yaratib berishi mumkin. Bu imkoniyatlar quidagilar:

Bola chet tillarini o'rganish orqali boshqa bir millat madaniyatiga kirib boradi. Bu esa bevosita uning dunyoviy qarashlarining kengayishiga sabab bo'ladi [3,46]. Bola ongi o'sgan sari ilm u uchun qanchalik ahamiyatli

ekanligini anglab boradi va biz birgina fan orqali boshqa fanlarga ham qiziqishni kuchaytirishimiz mumkin. Bundan tashqari ko'plab ilmiy manbalar va adabiyotlar dunyoning yetakchi tillarida chiqarilgan.

Ular o'zlari xohlagan har qanaqa mavzuda chet elliklarning fikri va ma'lumotlarini qabul qila oladi. Va chet tillarini bilish o'z bilm darajasini oshirishda katta yordam beradi.[3,205] Chet tillarini bilish insonning boshqa bir millat vakillari bilan madaniy va ma'rifiy aloqalarni yo'lga qo'yishga yordam beradi. Va bu sayohatlar uchun ham yordam beradi. Zamonaviy davrda ko'plab kompyuterlar xalqaro miqyosda faoliyat yuritadi va chet tillarini biladigan mutaxassislariga talab oshib bormoqda. Til bilish kasbiy o'sish va xalqaro loyihalarda ishtirok etish imkoniyatini oshiradi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, chet tilini o'rganish insonning miya faoliyatini rivojlantirishga va xotirani mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, yangi narsalarni qisqa muddat ichida o'zlashtirish imkoniyatini yaratib beradi.[5,136] Chet tillarini o'rganish nafaqat shaxsiy rivojlanish uchun balki jamiyat va mamlakat miqyosida ham katta ahamiyatga ega.

Globalizatsiya. Dunyo tobora har sohada birlashib bormoqda. Xalqaro savdo, biznes, sayohat va madaniy almashinuvlar ko'paygani sari ko'p tilni bilish ehtiyoji oshdi. [1,87] Jahon bozorida raqobatbardosh bo'lish uchun bir nechta tilni bilish muhim. Ko'plab kompyuterlar va tashkilotlar xalqaro miqyosda faoliyat yuritadi. Bu esa ko'ptillilikka bo'lgan ehtiyojni yanada oshirdi.[2,115] Shuningdek, xorijiy mamlakatlarda o'qish va ishlash uchun til bilish talab qilinadi. Ya'ni ko'plab nufuzli universitetlar va o'quv dasturlari chet tillarida olib boriadi. Chet tillarini o'rganish chet elda o'qish imkoniyatini kengaytiradi va zoriyiy stpendiyalarni qo'lga kiritish imkoniyatini beradi. . O'zbekiston singari boshqa davlatlarda ham chet tillarini o'rgatishga e'tibor oshgan. Buning ortidan yosh avlodning bilim darajasi xalqaro miqyosda o'sishi uchun davlat tomonidan yangi dasturlar va islohotlar amalga oshirilmoqda.

Chet tillaridan dars beruvchi yangi kadrlar faoliyati.

Maktabga ilk qadam qo'ygan har bir bolada ozmi ko'pmi o'zgacha hayajon tuyg'usi bo'ladi. Biz pedagoglarning asosiy vazifasi bola har qancha

tortinchoq bo'lsa-da uning qiziqishlari va qobiliyatlaridan kelib chiqib ularga sifatli va mazmunli ta'lim bera olishimizdir. Bugungi kunda yangi

o'qituvchilar chet tillarini o'qitishning zamonaviy yondashuvlarini yaxshi bilishadi. Ular universtet yoki maxsus tayyorgarlik kurslarida o'rganilgan yangi texnikalarni qo'llashga tayyorbo'ladilar. Elektron darsliklar, prezintatsiyalar, vediolar, onlayn vositalar, mobil ilovalar, metodlar va elektron kitoblardan foydalanish imkoniyatlari mavjud. Yangi kadrlar bolalar bilan qiziqarli mashg'ulotlar va o'yinlar orqali tilni o'rgatish usullaridan keng foydalanishadi. Shu bilan birga ular til o'rgatishni osonlashtirish uchun turli xil qiziqarli metodlardan foydalanishga intiladi. Bu o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. O'qituvchilar odatda doimiy ravishda rivojlanishga va yangi bilimlarni o'zlashtirishga tayyor bo'lishlari kerak. Ular til o'rganish usullaridagi yangi tendensiyalar va yangiliklarini kuzatib boradi va ularni

dars jarayonida qo'llashga harakat qiladi. Pedagogika sohasidagi yosh kadrlar o'quvchilarning ehtiyojlariga qarab o'quv jarayonini o'zgartirishga tayyor bo'ladilar. Ular har xil yondashuvlarni sinab ko'rishdan charchamaydilar.

Chet tillarini o'rganishdagi qiyinchiliklar va ularga to'g'ri yechimlar;

Chet tillarini o'rganishning ham boshqa fanlar qatori o'z qiyinchiliklari bor. Asosiy sabablari esa quyidagilar:

1. Xorijiy tillar doimiy takrorlanishga muhtoj. Va yosh bolalar o'z ona tilini chuqur bilmaganliklari sababli yana bir boshqa tilni o'rganish ular uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Biz bu muammoni mavzu va lug'atlarni doimiy takrorlatish orqali bartaraf qilishimiz mumkin. [3,62]
2. Ba'zi bolalarda esa o'zlashtirish yaxshi bo'lsa-da, ularda qiziqish yetishmasligi sababli bolaning darsda e'tiborsizligi kuzatiladi. Biz o'sha o'quvchining e'tiborini tortish uchun turli xil metodikali darslarga oid o'yinlardan foydalanishimiz kerak. Va bu orqali bolada qiziqish uyg'ota olamiz. [4,82]
3. Til abstrakt tushunchalar bilan bog'liq va ularni tushunish bolalarga qiyinlik qilishi mumkin. Bu esa ularga til qoidalarini tushunishni qiyinlashtiradi. Bu vaziyatda o'qituvchi mavzu tushunarli bo'lishi uchun bulaning hayotiga bog'liq ya'ni "bola tili" da tushuntirib bera olishi kerak. Bu esa bevosita o'qituvchidan pedagogik qobiliyatni talab qiladi. [1,98]
4. Yosh bolalarda lug'at zahirasi juda cheklangan bo'ladi va ular ko'p yangi so'zlarning mazmunini tushunishga biroz qiynalishi mumkin. Bu muammo bartaraf etilishi uchun o'qituvchi lug'atlarni bir turga oid ya'ni o'zbek tilidagi "uyadosh so'zlar" usulida yodlatishi ancha samarali bo'ladi. [2,175]
5. O'rganish jarayonida bolalar motivatsiya yetishmasligi ayniqsa darslar ularning fikrlashi uchun salgini qiyin bo'lsa ham ular tushkunlikka tushishi yoki darslar qiziq emasdek tuyulishi mumkin. Oqibatda ular o'zlarini hech qachon muoffaqiyatga erisha olmasdek his qilishlari mumkin. Bolalar kattalarga qaraganda ta'sirchan bo'ladi biz ularga zamonaviy texnologiyalardan foydalanib darslarni qiziq va samarali o'tishimiz mumkin. Ya'ni internetda ayniqsa yosh bolalar uchun har xil chet tillari uchun vediolar yaratilgan. Ulardan o'z vaqtida kerakli yo'nalishda foydalanishimiz kerak. [1,206]
6. Bolalar bu yoshda tengdoshlari yoki o'qituvchilar tomonidan baholanishga sezgir bo'ladi. Agar ular darslarni o'zlashtirmayotganligini sezsa o'zini o'zi baholashi tushib ketadi va o'ziga bo'lgan ishonchi pasayadi. Bu esa o'rganish jarayonida ularga psixologik to'siq yaratadi. Psixologlar bu vaziyat uchun boladagi potivlikni ko'tarish kerak. Ya'ni o'qituvchi bu holatni sezishi bilan o'sha bolaga alohida e'tibor qaratgan holda darsda faol ishtirok etishini ta'minlab berishi maqsadga muvofiqdir. [6,187]
7. Ba'zi bolalarning oilasida muammo bo'ladi. Va bu bosim o'qituvchilar yoki atrofdagi muhit tufayli yuqori darajada stressga tushadi. Stress esa o'z navbatida diqqatni jamlashni va muoffaqiyatli o'rganishni qiyinlashtiradi. Bu yoshda bolalar ko'pincha ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida bo'ladilar. Bu vaziyatga to'g'ri yechim albatta o'qituvchi va ota-ona kelishgan holda to'g'ri yechim topishi va o'quvchiga qulay muhitni yaratib berishi kerak.
8. Bolalarda yana bir holat bor. Ya'ni bolaning hissiy rivojlanishi boshqa tengdoshlariga qaraganda sekinroq kechishi mumkin. Bu ularga qiyinchiliklarni yengishda yordam beruvchi moslashuvchan strerategiyalarning yetishmasligiga olib keladi. Bu holatda bola bilan alohida shug'illanish muammoni bartaraf etadi. [3,217]

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. B. X. XODJAYEV „Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti ” Toshkent 2017.
2. G. S. OMOROVA „Pedagogik texnologiyalar va talim-tarbiya tizimi.” Toshkent: OzPFITI, 2015.
3. V. I. ZIMNYAYA „Pedagogik psixologiya.” Moskva: Oliy maktab, 2000.
4. A. A. LEONTOV „Oqitish metodologiyasi va metodikasi.” Moskva: Pedagogika, 1981.
5. J. DEWEY. „Demokratiya va talim.” Moskva: Oqituvchi, 2008.
6. I. GAYBULLAYEV. „Didaktika va talim texnologiyalari.” Toshkent: Oqituvchi, 2012.